

THE EPIC “QIRONXON” IN ANCIENT TURKIC FOLK EPIC TRADITION

Musayev Shokhsuvor
2nd-Year Master’s Student
Chirchik State Pedagogical University

Abstract:

This scientific article is devoted to the analysis of the historical, artistic and cultural significance of the epic poem "Qironxon", one of the high examples of the oral creativity of the Uzbek people. The work comprehensively covers the inextricable connection of the epic poem with ancient Turkic epic traditions, its formation and stages of development.

Keywords: “Qironxon” epic, heroic epic, epic poetry of the Turkic peoples, folklorism in epic poetry, historical memory.

Introduction

QADIMIY TURKIY XALQ DOSTONCHILIGIDA “QIRONXON” DOSTONI

Musayev Shohsuvor
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy maqola o‘zbek xalqining og‘zaki ijodining yuksak namunalaridan biri – “**Qironxon**” dostonining tarixiy, badiiy va madaniy ahamiyatini tahlil etishga bag‘ishlangan. Asarda dostonning **qadimiy turkiy epik an’analar** bilan uzviy bog‘liqligi, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari atroflicha yoritilgan.



Kalit so'zlar: Qironxon dostoni, qahramonlik eposi, turk xalqlari dostonchiligi, dostonchilikda xalqchilik, tarixiy xotira.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan milliy merosni tiuklashga alohida e'tibor qaratdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz tomonidan o'tmishdagi boy madaniy merosni tiklash, xalqning qalbida asrlar davomida yashab kelgan, biroq sustlashgan qadriyatlarni qayta jonlantirishga yo'naltirilgan siyosat olib borila boshlandi.

O'tkazilgan har bir madaniy-ma'naviy tadbir amaliy mazmunga ega bo'lishi bilan birga, xalq qalbiga ozodlik, o'zlikni anglash tuyg'usini olib kirishga qaratildi. Millat o'tmishi va istiqboli haqida ochiq mulohaza yuritish, ajdodlarimizning ilmiy kashfiyotlari, madaniy yodgorliklari, din va qadriyatlar borasida baralla so'zlash imkoniyati yuzaga keldi.

Aslida, o'zbek xalqining boy madaniy merosga ega ekanligi haqida fikrlar mustabid tuzum davrida ham mavjud edi. Biroq bunday qarashlarni ilgari surgan ziyolilar og'ir jazoga tortilgan, ko'pchiligi – Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Otajon Hoshim kabi ijodkorlar otib yuborilgan. Ba'zilar – Usmon Nosir, keyinroq Mirtemir, Said Ahmad, Maqsud Shayxzoda singari adiblar uzoq yillik qamoq jazolariga hukm qilingan edi.

Shunga qaramay, erkinlik va xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida xizmat qiluvchi adabiy asarlar yaratilishdan to'xtamadi. 1960–1970-yillarda ijod maydoniga kirib kelgan yosh shoirlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar “O'zbekim”, “O'zbekiston” kabi she'rlari bilan yurtdoshlarimiz qalbida milliy g'urur, istiqbolga ishonch tuyg'usini uyg'otdilar.

Shuningdek, 1950-yillardan boshlab Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Parso Shams, Solih Mutallibov, Hodi Zarif kabi atoqli ziyolilar Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarini ilmiy asosda nashrga tayyorlab, keng jamoatchilikka taqdim etdilar.

Qizig'i shundaki, o'sha davr olimlari bu asarlardagi sovet mafkurasiga zid jihatlarni tanqidiy ruhda sharhlagan bo'lsalar-da, ularni to'liq nashr etishga ham erishganlar. Bu esa ilmiy fidoyilikning yorqin namunasi edi.



Shubhasiz, “Sovet tuzumi davrida xalq og‘zaki ijodida hukmron siyosatga qarshi asarlar yaratilmaganmi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Biroq xalq og‘zaki ijodi asarlari yozib olinmasa, ularni ommalashtirishga sharoit bo‘lmasa, ular asta-sekinlik bilan unutilib ketadi. Aytilganlar yoddan chiqadi, mavjudligidan asar ham qolmaydi. Aynan shuning uchun ham o‘sha yillarda diniy mavzulardagi rivoyatlar, afsonalarning mavjud bo‘lgani haqida faqat og‘zaki xotiralar orqali ma’lumotga egamiz.

Masalan, Otajon Hoshim tomonidan yozib olingan ayrim qo‘shiqlarda kolxoz siyosatiga, paxta yakkahokimligiga nisbatan norozilik ifodalangan. Afsuski, turli sabablarga ko‘ra bu yozuvlar bizgacha yetib kelmagan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining yuksak namunalari biri bo‘lgan **“Qironxon” dostoni** qadimiy turkiy xalqlarning epik an‘analaridan oziqlangan holda shakllangan, o‘z davrining estetik, axloqiy va ijtimoiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan yirik epik asardir. Dostonning ildizlari turkiy xalqlarning qadimiy epik tafakkuri, shonli tarixiy voqealari va etnik xotirasiga borib taqaladi. Xususan, “Alp Er To‘nga”, “O‘g‘uznoma”, “Qutadg‘u bilig” kabi turkiy yozma va og‘zaki yodgorliklarda uchraydigan motivlar va obrazlar tizimi “Qironxon” dostonida ham o‘z aksini topgan¹.

Turkiy xalq dostonchiligida qahramonlik, vatanparvarlik, sadoqat, adolat, shijoat kabi umuminsoniy g‘oyalar asosiy mavzu bo‘lib xizmat qilgan. “Qironxon” dostoni ham ana shu qadimiy epik tafakkur asosida yaratilgan bo‘lib, unda bosh qahramonning el-yurt, adolat, vafo yo‘lida olib borgan kurashi, dushmanga qarshi jasorat bilan chiqishi epik mezonlar asosida yoritiladi.

Turkiy xalqlarning og‘zaki epik merosi ko‘p asrlar davomida o‘z xalqining tarixiy xotirasi, ma’naviy dunyosi va madaniy qadriyatlarini ifodalab kelgan. Bu merosda dostonlar muhim o‘rin egallaydi. “Qironxon” dostoni esa ushbu epik an‘analar zanjirida o‘ziga xos yodgorlik sifatida ajralib turadi.

“Qironxon” dostoni bir tomondan an‘anaviy qahramonlik eposining asosiy xususiyatlariga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan – unda qadimiy turkiy dostonchilik arxetiplari saqlanib qolgan. Dostonning poetik va kompozitsion tuzilmasi,

¹ Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова М., Муртазоев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. –Т: Фан ва тахнология 2018. –Б. 212.



qahramonning epik funksiyasi, ramziy obrazlar va syujet strukturasidagi ba'zi komponentlar turkiy xalqlarning qadimgi dostonlaridagi elementlar bilan bevosita bog'liq.

Dostonning asosiy obrazlari – Qironxon, uning safdoshlari va qarshi kuchlar orqali xalqning tarixiy xotirasi va ijtimoiy ongida muhim o'rin tutgan axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Ayniqsa, Qironxon obrazi turkiy xalqlarning an'anaviy “alp” (**bahodir**) timsoliga yaqinlashtirilgan bo'lib, u jasorat, sadoqat, aql-zakovat, el-yurt dardini yuragida his qiluvchi rahbar sifatida tasvirlanadi².

Turkiy xalqlar dostonchiligida keng qo'llanilgan **formulaik iboralar, epitetlar, qasidaviy boshlang'ichlar, qahramonning sinovdan o'tishi, ayrim ritmik-tarixiy takrorlar** kabi poetik usullar “Qironxon” dostonida ham saqlanib qolgan. Bu holat dostonning ko'p asrlar davomida og'zaki shaklda yashab kelganini, bardlar (baxshilar) tomonidan turli variantlarda ijro etilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, doston mazmunida tarixiy asoslar bilan bir qatorda mifologik, fantastik elementlarning mavjudligi bu asarning **turkiy epik arxetiplar** bilan bevosita bog'liqligidan dalolat beradi. Qahramonning ajdaho, dev, yovuz kuchlar bilan kurashi orqali nafaqat jismoniy, balki ma'naviy ustunlik g'oyasi ilgari suriladi.

“Qironxon” dostonining janr xususiyatlari ham qadimiy turkiy dostonchilik an'analari bilan uzviy bog'liq. Doston an'anaviy **qahramonlik eposi** janrida yaratilgan bo'lib, u yerda syujetning qattiq izchilligi, konfliktning soddaligi, qahramonlarning idealizatsiyalangan obrazlarda berilishi, ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligiga asoslangan struktura kuzatiladi. Bu jihatlar o'z navbatida “Qironxon” dostonini umumturkiy epik an'analarda doirasida o'rganish imkonini beradi.

“Qironxon” dostoni – bu nafaqat o'zbek xalqining, balki butun turkiy dunyoning epik xotirasi va poetik tafakkuri mahsulidir. Uni qadimiy turkiy xalq dostonchiligi kontekstida o'rganish orqali biz milliy epik merosimizning genetik

² Норматов У. Халқ дostonларининг қиёсий таҳлили. 2019 йил «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»га бағишланган «Фан ва таълим-тарбиянинг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман. Нукус 2019. –Б. 243.



ildizlarini, shakllanish bosqichlarini va badiiy tafakkur darajasini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘lamiz³.

“Qironxon” dostoni xalq og‘zaki ijodining qadimiy qatlamiga mansub bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar davomida sodir bo‘lgan. Dostonning kelib chiqishi bevosita o‘zbek xalqining tarixiy taqdiri, ijtimoiy hayoti, urushlar, o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liqdir. U o‘zida turkiy xalqlarning qadimiy qahramonlik dostonlariga xos elementlarni saqlab qolgan holda, keyinchalik o‘zbek folklorining an’anaviy epik tafakkuri doirasida boyib, milliy doston darajasiga ko‘tarilgan.

Doston yaratilgan davrda, ayniqsa, **Xiva, Buxoro, Qo‘qon** xonliklarida xalq orasida epos ijodkorlari - **baxshi, dostonchi, oqin va jo‘rchilar** faoliyat olib borgan. Ular xalq orasida epik asarlarni og‘zaki ravishda ijro etib, ularni avloddan-avlodga yetkazganlar. “Qironxon” dostoni ham mana shunday an’anaviy ijod muhitida paydo bo‘lib, keyinchalik turli hududlarda keng tarqalgan.

Ushbu dostonning bir necha **variantlari** mavjud bo‘lib, ular **Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg‘ona vodiysi** va boshqa viloyatlarda dostonchilarning ijrosida yozib olingan. Har bir variantda dostonning syujeti, obrazlar tizimi, ba’zi nomlar yoki voqealar farqli tafsilotlarga ega bo‘lsa-da, asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi va poetik ruhiga putur yetmagan.

Ilmiy adabiyotlarda “Qironxon” dostonining ilk yozma manbaga tushirilishi haqida aniq sana ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida bu doston folklorshunoslar tomonidan qaydga olingan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Jumladan, **Mamatqul Jo‘raev** tuzgan **“O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” (2015)** to‘plamining 3-jildida doston ilk bor to‘liq holatda e‘lon qilingan. Bu nashr asosida doston bo‘yicha ilmiy izlanishlar uchun tayanch matn vujudga keldi⁴.

Shuningdek, “Qironxon” dostoni ayrim jihatlari bilan boshqa epik asarlar, xususan, “Alpomish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘li”, “Chor darvesh” kabi xalq

³ Норматов У. Халқ дostonларида айрилиқ мотиви. International Congress on Multidisciplinary Studies August 25-28, 2019 / Shymkent, Kazakhstan. 2019. –P. 134.

⁴ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Учинчи жилд. Фафур Ғулом номидаги нашриёт –матбаа уждий уйи – Т: 2015.



dostonlari bilan janr va strukturaviy jihatdan hamohanglik kasb etadi. Ammo “Qironxon” dostoni o‘zining **mustaqil obrazlar tizimi, o‘ziga xos syujet chiziq-lari va axloqiy-ruhiy g‘oyalari** bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi.

Dostonning xalq orasida keng tarqalganligi, uning ko‘p variantli va ko‘p funksiyali asar sifatida yashab kelganini ko‘rsatadi. U nafaqat xalqni ma’naviy jihatdan tarbiyalagan, balki **tarixiy xotirani saqlovchi, axloqiy-me’yoriy tizimni mustahkamlovchi** vosita sifatida ham xizmat qilgan.

“Qironxon” dostonining yaratilish tarixi murakkab, ammo sermazmun jarayon bo‘lib, u o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Doston turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda shakllanib, xalq og‘zaki ijodining abadiy yodgorligiga aylangan.

Dostonning asosiy g‘oyasi - **xalq manfaatini himoya qilish, adolatni tiklash, iymon, sadoqat va jasoratni targ‘ib qilish** - bu qadriyatlar qadimiy turkiy eposlarning asosiy ideallari sifatida qaralgan. Qironxon obrazi o‘zbek xalq eposidagi Alpomish, Ravshan kabi qahramonlar qatorida turadi, ammo u ancha real, ijtimoiy ongga yaqin obraz bo‘lib, xalq ichidan chiqqan, lekin xalqdan yuksalgan ideal timsoldir.

Doston asrlar davomida **baxshilar, jo‘rchilar** tomonidan og‘zaki ijro etilib, **xalq xotirasi va tilida yashab kelgani** uni tirik doston sifatida qabul qilish imkonini beradi. Bu jihati bilan ham “Qironxon” qadimiy turkiy dostonchilikning **ijtimoiy-funksional davomchisi** bo‘lib xizmat qilgan. “Qironxon” dostoni – qadimiy turkiy xalq dostonchiligining milliy shakldagi ifodasi bo‘lib, o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini, axloqiy mezonlarini va estetik qarashlarini badiiy tarzda mujassam etgan. Dostonning qadimiy epos an‘analari bilan uzviy bog‘liqligi uni nafaqat o‘zbek, balki butun turkiy xalqlar epik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Xalq og‘zaki ijodi – mehnatkash xalq ijodiy faoliyatining eng muhim ifodasi bo‘lib, u asrlar davomida og‘izdan-og‘izga, avlod-dan-avlodga o‘tib, badiiy shakllar orqali sayqal topgan. Turkiy xalqlarning og‘zaki adabiy merosi esa ushbu ijodning eng yuksak ko‘rinishlaridan biri sifatida **dostonchilik an‘analarida** mujassam bo‘lgan.



Qadimiy turkiy dostonlar – xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari, jasorat va vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan epik asarlardir. Ular musiqiy, dramatik, poetik va ramziy elementlarning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham dostonlarni **sintez san’ati** yoki **sinkretik adabiyot** deb atash mumkin – chunki unda so‘z, kuy, ijro, harakat va tasvir bir butun badiiy ifodaga birlashadi⁵.

Dostonlar – xalq hayotining eng muhim voqealarini umumlashtirgan, xalq ruhiyatini, estetik qarashlarini, olam haqidagi tasavvurlarini badiiy vositalar bilan ifodalagan yodgorliklardir. Ular faqat bir kishining emas, balki butun xalqning ruhiy tajribasi mahsuli sifatida qadrlidir. Ayniqsa, **qadimiy turkiy dostonlar** – “Alp Er To‘nga”, “O‘g‘uznoma”, “Qutadg‘u bilig” kabi asarlar turkiy xalqlarning epik tafakkuri, qadimiy estetik mezonlari va dunyoqarashining badiiy in‘ikosi hisoblanadi.

Dostonchilikda xalqchilik muhim o‘rin egallaydi. Har bir doston mazmunida xalqning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, tarixiy bahosi va axloqiy qadriyatlari ifodalanadi. Tarixiy voqealar xalq dunyoqarashi asosida badiiylashtiriladi. Bu esa epik asarlarning **ijtimoiy-falsafiy** va **estetik-funksional** ahamiyatini oshiradi.

Folklorshunoslik – ana shunday og‘zaki dostonchilik merosini ilmiy asosda o‘rganuvchi fan sohasidir. Bu fan qadimiy yozma manbalar, tarixiy xotiralar, sayyohlar va tarixchilarning qaydlarini tahlil qilish orqali turkiy xalqlarning og‘zaki epik ijodini ilmiy jihatdan yoritadi. Jumladan, qadimgi Yunon, Xitoy, Arab va fors manbalarida qayd etilgan rivoyatlar, marosimlar, urf-odatlar turkiy dostonchiligining shakllanish jarayoniga doir muhim dalillardir⁶.

O‘zbek dostonchiligida “**Alpomish**”, “**Go‘ro‘g‘li**”, “**Ravshan**”, “**Qironxon**” kabi asarlar ana shu qadimiy turkiy epik an‘analar davomchisi bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodi asosida shakllangan, ammo vaqt o‘tishi bilan ijodiy qayta ishlanib, tarixiy muhitga moslashgan. Har bir avlod ularni o‘z zamonasining g‘oyaviy-estetik talablari asosida boyitib, yangilab ijro etgan.

XX asr boshlaridan boshlab o‘zbek xalq **to‘plash, nashr qilish va ilmiy o‘rganish** ishlari boshlangan. Xususan, Hodi Zarif, Mahmud Sa‘diy, To‘ra

⁵ Хайдаров З. Номоддий маданий мерос. Наманган 2014. –Б. 61.

⁶ Сабитова Т. Халқ ижоди сабоқлари. –Т: Мумтоз сўз. 2011.



Mirzayev, B. Sarimsakov, H. Sharipov kabi olimlar o‘zbek xalq dostonchiligi asoslarini o‘rganib, bu sohaga mustahkam ilmiy-metodik asoslar yaratganlar.

Bugungi kunda turkiy xalq dostonchiligi – xalq ruhiyatining abadiy guvohnomasi, madaniy-milliy o‘zlikning ramzi, badiiy tafakkurning bebaho manbai sifatida qadrlanmoqda. Ularni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова М., Муртазоев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. –Т: Фан ва тахнология 2018. –Б. 212.
2. Норматов У. Халқ дostonларининг қиёсий таҳлили. 2019 йил «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»га бағишланган «Фан ва таълим-тарбиянинг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман. - Нукус 2019. –Б. 243.
3. Норматов У. Халқ дostonларида айрилик мотиви. International Congress on Multidisciplinary Studies August 25-28, 2019 / Shymkent, Kazakhstan. 2019. –P. 134.
4. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Учинчи жилд. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт –матбаа уждий уйи –Т: 2015.
5. Хайдаров З. Номоддий маданий мерос. Наманган 2014. –Б. 61.
6. Сабитова Т. Халқ ижоди сабоқлари. –Т: Мумтоз сўз. 2011.